

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳира Муқимжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

| | |
|--|----|
| 1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ..... | 5 |
| 2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI..... | 12 |
| 3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ..... | 21 |
| 4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI..... | 30 |
| 5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI..... | 36 |
| 6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA..... | 44 |
| 7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHLTLARI..... | 51 |
| 8. Jiyanmurotova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR..... | 58 |
| 9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ..... | 66 |
| 10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ..... | 74 |
| 11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI..... | 80 |
| 12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY OMILLARI..... | 88 |
| 13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLIHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH..... | 93 |

| | |
|---|-----|
| 14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI..... | 102 |
| 15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI..... | 108 |
| 16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA..... | 117 |
| 17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA..... | 126 |
| 18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI..... | 132 |
| 19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI..... | 138 |
| 20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI..... | 145 |
| 21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ..... | 154 |
| 22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI..... | 163 |
| 23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI..... | 170 |
| 24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI..... | 177 |
| 25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI..... | 185 |
| 26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA..... | 190 |

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Akramov Xasan,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti


O‘zbek tili ta’limi fakulteti

Ijtimoiy-gimanitar fanlar kafedrası

katta o‘qituvchisi (PhD)

xasakramov@gmail.com

YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800146>

АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada muallif O‘zbekistondagi sportni rivojlantirish strategiyasining normativ-huquqiy bazasi asosida tahlil qilib, sportni rivojlantirishdagi asosiy metodologiya sifatida qo‘llaniladigan Qonun va qonun osti hujjatlarini sotsiologik tahlil asosida ko‘rib chiqqan. Sport sohasini shakllanishining tarixiy-xronologik davridagi davlat rahbari hamda hukumat tomonidan ishlab chiqilgan farmon va qarorlarni maqolada tasviriy tahlil asosida tahlil etgan. Maqolada muallif davlat tomonidan sport institutiga berilgan vazifalardagi strategik jarayonlarni keltirib o‘tgan. Ushbu maqolaning qiziqarli tarafi shundaki, sport tizimini aynan sotsiologik jihatdan tahlil qilinganligi bu sohani o‘rganishdagi ilmiy yangilik sifatida olinishidir.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, sport, strategiya, normativ-huquqiy bazasi, sotsiologik tahlil, qonun, qonun osti hujjatlari, farmonlar, qarorlar.

Акрамов Хасан,

старший преподаватель (PhD)

Ташкентского государственного университета

узбекского языка и литературы

факультета “Обучение узбекскому языку”

кафедры Социально-гуманитарных наук

xasakramov@gmail.com

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НОРМАТИВНО-ПРАВОВОЙ БАЗЫ В ФОРМИРОВАНИИ СПОРТИВНОЙ СТРАТЕГИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор проанализировал нормативно-правовую базу стратегии развития спорта в Узбекистане, и на основе социологического анализа рассмотрел законодательство и подзаконные акты, применяемые в качестве основной методологии развития спорта. В статье, на основе иллюстративного анализа, были проанализированы указы и постановления, разработанные главой государства и правительством в историко-хронологическом порядке в

период становления спортивной сферы. В статье автор привел стратегические процессы в задачах, возложенных на институт спорта государством. Именно социологический анализ спортивной системы является научным нововведением в изучении этой области.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, спорт, стратегия, нормативно-правовая база, социологический анализ, закон, подзаконные акты, указы, постановления.

Akramov Hasan,

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
Faculty of Uzbek Language Education
Senior Lecturer, Department of Social and
Humanitarian Sciences (PhD)
xasakramov@gmail.com

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE REGULATORY LEGAL FRAMEWORK IN THE FORMATION OF THE SPORTS STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

In this article, the author analyzed the regulatory framework for the development strategy of sports in Uzbekistan, and, based on sociological analysis, examined the legislation and regulations used as the main methodology for the development of sports. The article, based on an illustrative analysis, analyzed the decrees and resolutions developed by the head of state and the government in historical and chronological order during the formation of the sports sphere. In the article, the author cited strategic processes in the tasks assigned to the institute of sports by the state. It is the sociological analysis of the sports system that is a scientific innovation in the study of this area.

Keywords: New Uzbekistan, sport, strategy, regulatory framework, sociological analysis, law, by-laws, decrees, resolutions.

KIRISH

O‘zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida jismoniy madaniyat va sport ham o‘z o‘rniga ega. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov haqli ravishda “Zaminimiz polvonlar va botirlarini mehr bilan tarbiyalab kelmoqda. Bugungi kunda hamma joyda sportning milliy turlari qayta tiklanmoqda... o‘zining salomatligi haqida shaxsan g‘amxo‘rlik qilib borish madaniyatini yoshlikdan, maktab, mahalla, sog‘liqni saqlash tizimi, jismoniy tarbiya va sportning ko‘magida singdirish kerak” [1], – deb ta’kidlagan edi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, davlatimiz yoshlar masalasiga katta e‘tibor berib kelmoqda. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga qaratilgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy islohotlar sharoitlarga jamiyat hayotiga bosqichma-bosqich adaptatsiyalashtirilib kelinmoqda.

O‘zbekiston umumjahon o‘zgarishlar jarayonlari oqimida o‘zining betakror ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy yangilanishlari va maqsadli dasturiga ega bo‘lgan mamlakat sifatida o‘ziga xos mavqe egalladi. Mutaxassislar fikricha, yangi sivilizatsiya va insoniyat taraqqiyotiga kuchli ta‘sir o‘tkazishga qodir bo‘lgan davlat sifatida o‘zining keng imkoniyatlarini namoyon etdi [2, – B. 63-72.].

Insoniyat tarixi turli davrlarda Uyg‘onish, ya‘ni Renessans hodisasini bosib o‘tgan. O‘zbek xalqi tarixida IX-XII asrlar Uyg‘onish davri – ilk Renessans hodisasi sodir bo‘lib, o‘sha davrda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Al-Xorazmiy, Forobiy, Moturidiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk mutafakkir olimlar nomi bilan bog‘liq. Turon xalqlari tarixidagi Amir Temur va Temuriylar Renessans nomi bilan bog‘liq bo‘lgan ikkinchi Renessans davri jahon ilm-fani, madaniyatiga o‘z hissalarini qo‘shgan Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy kabi o‘sha davrning buyuk siymolar umuminsoniy qadriyatlarni yuksak darajada o‘zida mujassam etgan milliy davlatchilik va adolatli boshqaruv tizimiga ega jamiyatni shakllanishi, milliy tiklanish va komil inson g‘oyalarini ilgari surishgan [3, – B.16-18]. Zero bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi rivojlanish jarayonlari

siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarali natijasidir, deb to‘la ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Yurtboshimiz “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida: “Shu ma‘noda, har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o‘ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O‘zbekiston fenomeni ham bundan mustasno emas. Ushbu tushuncha mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi islohotlarimizning tayanch g‘oyasini ifoda etadi. Ana shu g‘oya asosida yurtimizda “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” degan shior ilgari surilayotgani ham bejis emas” [4, – B.16-18] deb, o‘rinli ta‘kidladi. Bu borada davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan ularni tahlil qilsak, shaxs, jamiyat va davlatning o‘zaro munosabatlari takomillashgan sari qonunlar ham mukammallashib borishi kuzatiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada tarixiy-xronologik jihatdan O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan Qonun va qonun osti hujjatlarining tasviriy hamda qiyosiy tahlil asosida ko‘rib chiqilgan. Tahlil jarayonida WWW.LEX.UZ [5] davlat saytidagi hujjatlarni kiritilgan davridan boshlab shu kunga qadar ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar keltirib o‘tilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida sport strategiyasiga qaratilgan barcha jarayonlar davlatning strategik sohalari kabi rivojlanishi haqida keltirib o‘tilgan huququy hujjatlarda aks etishini muallif ko‘rsatib o‘tgan. Qo‘shimcha manbaa sifatida davlat rahbarining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asari ham O‘zbekistonda sport strategiyasini shakllantirishga oid kerakli ma‘lumotlar qo‘llanilgan.

Sportni rivojlantirishda asosiy metodologiya bu albatta qonun bo‘ladi. Ushbu maqolada “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun Respublikamizda dunyo bo‘yicha birinchilar qatorida qabul qilinganligi, sportni rivojlantirishdagi asosiy strategik poydevor bo‘lib xizmat qilishiga asos bo‘ladi. Muallif bu maqolani yozishda o‘zining “Sport yoshlar turmush darajasini oshirishning ijtimoiy indikatori sifatida” mavzusida amalga oshirilgan dissertatsiyasidagi ma‘lumotlardan ham foydalangan.

ASOSIY QISM

Normativ-huquqiy hujjatlarning tarixiy-xronologik tahliliga ko‘ra, mamlakatimiz mustaqillikka erishganining ilk yillarida, 1992-yil 14-yanvarda “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. E‘tiborli jihati, hali jahon mamlakatlari orasida hech bir davlatda jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida qonun ishlab chiqilmagan edi. Bunday 28 moddadan iborat qonun birinchi bo‘lib mamlakatimizda qabul qilingan e‘tirofqa loyiq.

O‘sha yilning 21-yanvarida Milliy Olimpiya qo‘mitasi tashkil etilib, 27-may kuni Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi tarkibiga rasmiy a‘zo etib qabul qilindi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga huquqiy poydevor qo‘yilgach, 1993-yil 4-mart kuni Vazirlar Mahkamasining “Sog‘lom avlod” ordenini ta‘sis etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Shu yilni 18-mart kuni esa Hukumatning “Futbolning ommaviyiligini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi hamda 1993 yil 28- oktabrda “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro xayriya fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi. 1994-yil Toshkentda ilk bor tennis bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi “Prezident kubogi” tashkil etildi. Natijada ushbu sport turlarini yanada ommalashtirish maqsadida 1996-yil 13-martda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi va 1997-yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda tennisni rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi.

Shuningdek, 1997- yil 29-avgustda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda “Ta‘lim oluvchining salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashni kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratish, o‘qish, mehnat qilish, dam olish uchun ta‘lim muassasalari mas‘uldir” [6], – deb qayd etilgan. Qonunlar tahliliga ko‘ra, yoshlarning ta‘lim olishi va ularning doimo sog‘lom bo‘lishini davlat o‘z muhofazasiga olgani diqqatga sazovor. Natijada O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta‘lim tizimini joriy etish bilan bog‘liq yangi qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, bolalar sportini rivojlantirish to‘g‘risidagi Prezident va hukumatning qaror, farmonlari asosida mamlakatimizda 3 bosqichli sport musobaqalari tizimi yaratildi. Mutaxassislar

e'tirof etishicha, dunyo mamlakatlarida o'quvchilar va talaba yoshlarning turli darajali sport musobaqalari mavjud. E'tiborli jihati o'smirlar, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga ommaviy jalb etishning O'zbekistonda joriy etilgan 3 bosqichli tizimiga o'xshash mukammal uzluksiz tizim jahon tajribasida mavjud emas. Mazkur tizimning afzalligi hozirda dunyoning aksariyat davlatlarida katta qiziqish uyg'otmoqda.

1998-yil sentyabr oyida o'zbek kurashi bo'yicha Toshkent shahrida birinchi jahon chempionati o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbek kurashini ommaviylashtirish maqsadida 1999-yil 1-fevralda "Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi farmonlari hamda 1999-yil 27-may kuni Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 271-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan 1999-yil 24-dekabrda "Alpomish va Barchinoy" sport musobaqalari test mezonlari ishlab chiqildi. Uni 2000-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiritish va amalga tatbiq qilish boshlanib, hozirda ham ushbu mezonlar to'liq qo'llanilmoqda [7].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-fevralda "Sog'lom avlod" davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori, 2000-yil 26-mayda yangi tahrirdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini ta'minlashda 2000-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" uzluksiz sport musobaqalarini muntazam o'tkazish maqsadida "Uch bosqichli" musobaqa tizimini joriy etish to'g'risidagi farmoni e'lon qilingani muhim ahamiyat kasb etadi [8]. Dastlab 2000-yil Namanganda o'tkazilgan talabalar Universiadasi, 2001-yil Jizzaxda bo'lib o'tgan "Barkamol avlod" sport o'yinlari mazkur tizimning yosh avlod tarbiyasida qanchalik muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Dunyoning hech qaysi davlatida o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimi talabalar o'rtasida rasmiy ommaviy sport musobaqasi o'tkazilmasligi, biroq, O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sportga bo'lgan munosabat davlat siyosati darajasida ekanligini amalda tasdiqladi.

Yosh avlodning jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamolligini ta'minlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va rivojlantirish, sportga mehr-muhabbatni oshirish, joylarda bolalar sportining moddiy-texnik bazasini yaratish, zamonaviy bolalar sport majmualari tarmog'ini barpo etish, sport uskunalari va jihozlari bilan ta'minlash ishlarini yanada faollashtirish maqsadida 2002-yili 24-oktabrda O'zbekiston Respublika Prezidentining "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi Farmoni [9] asosan o'sha yili 31-oktabr kuni Hukumatning "Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida"gi 374-sonli qarori qabul qilingani diqqatga sazovor.

Jismoniy tarbiya va sportni OAV orqali keng targ'ib qilish, uning mazmun-mohiyatini mamlakat aholisiga yetkazish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2003-yilda 4-noyabrdagi "Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib [10], unga binoan O'zbekiston televideniyesida maxsus "Sport" kanali tashkil etildi [11].

2004-yil 30-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-455-sonli Farmoni hamda o'sha yil 29-avgustda "Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-348-sonli Farmoni e'lon qilindi [12]. Yuqorida keltirilgan farmonlar sport sohasini yanada takomillashtirish uchun va rivojlantirish uchun real mexanizm sifatida xizmat qilmoqda.

Nufuzli xalqaro tashkilotlarning e'tirof etishicha, O'zbekiston dunyoning 125 ta davlati orasida xotin-qizlar uchun qulay sharoitlar yaratish va onalikni muhofaza qilish borasida yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Jahon reytingida mamlakatimiz yosh avlod salomatligiga eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatayotgan 10 ta davlat safidan muhim joy oldi. Xarakterli jihati aholi genofondini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan maqsadli chora-tadbirlar natijasida ayollarning o'rtacha umri 66 yoshdan 73,5 yoshga uzayib, onalar va go'daklar o'limi 3 barobar kamaydi [13]. Bu borada, Hukumatning 2010-yilda qabul qilgan "Qishloq joylardagi bolalar sport obyektlarida band bo'lgan ayol sport ustozlari mehnatini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2006-yil 1-may kuni imzolagan “Futbolni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra [14], sportning ommaviylaridan biri hisoblangan o‘yin turi – futbolni yanada rivojlantirish maqsadida viloyatlar va shahar markazlaridagi stadionlar qayta ta‘mirlanib, futbol maydonlari rekonstruksiya qilindi, futbol maktab-internatlari tashkil etildi. Eng muhimi, futbolning professional klublar tizimiga o‘tkazilishining asosiy tamoyillari belgilandi. Mazkur ishlar sport bilan shug‘ullanuvchilar sonining ortib borishiga zamin yaratmoqda. Masalan, 2008-yilda futbol bilan shug‘ullanuvchilarning soni 1991-yildagiga nisbatan 80,6%, kurash bilan shug‘ullanuvchilar esa 89,8%ga ko‘paygan. 1991 yilda yurtimizda 52 sport turi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda 74 ta sport turidan 65 dan ortig‘i barcha hududlarda keng rivoj topib, ularni ommalashtirish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda [15].

Sohada erishilgan ko‘pgina ijobiy natijalarga qaramay, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, ayniqsa, yoshlar hamda ayollarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini yaratish, milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan maqsadli islohotlarni huquqiy jihatdan ta‘minlash hamda ularni yanada takomillashtirish maqsadida 2015-yil 4-sentyabrda yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi [16].

Yangi tahrirdagi Qonunning tarkibiy tuzilishi jihatidan 8-bob, 47-moddadan iborat bo‘lib, avvalgi tahrirdagi qonun esa 27-moddadan iborat edi. Bu esa yangi tahrirdagi qonun sohaga doir huquqiy munosabatlarni keng qamrab olganligidan dalolat beradi. Mazkur qonunda avvalgisidan farqli o‘laroq, “jismoniy tarbiya”, “jismoniy rehabilitatsiya”, “sport”, “ommaviy sport”, “professional sport”, “sportchi” kabi jismoniy tarbiya va sportga oid bir qator asosiy tushunchalar ta‘rifi batafsil ochib berilgan. Unga ko‘ra, sportga insonlarning belgilangan qoidalar bo‘yicha tashkil etilgan, ularning havaskor va professional asosdagi faoliyati jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat bo‘lgan, shuningdek, ushbu faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda bu jarayonda insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, deb ta‘rif berildi [17].

Mazkur qonunda va boshqa qonun osti normativ hujjatlar jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish asoslari, eng avvalo, Konstitutsiyaga, so‘ngra xalqaro huquq normalariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishni davlat instituti tomonidan qo‘llab-quvvatlash, har bir fuqaro jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shug‘ullanishini huquqiy jihatdan ta‘minlash, jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitish hamda zo‘ravonlik holatlariga yo‘l qo‘ymaslik, sportchilar, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ishtirokchilari hamda tomoshabin va fanatlarning hayoti hamda sog‘lig‘i xavfsizligini ta‘minlash, nogironligi mavjud va jismoniy imkoniyati cheklangan boshqa shaxslar, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari o‘rtasida ommaviy sportni joriy qilish hamda rivojlantirishga ko‘maklashish, O‘zbekistonning milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish kabi muhim masalalar qamrab olingan. Yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun aholini jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga keng jalb qilishga, fuqarolarni sog‘lom va uzoq umr ko‘rishga, sohada mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimi hamda sport infratuzilmasini shakllantirishga, sportning milliy turlarini rivojlantirishga, yurtimiz yoshlarini xalqaro musobaqalar va Olimpiya o‘yinlarida munosib ishtirok etishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari ushbu Qonunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, maxsus vakolatli davlat organi, Sog‘liqni saqlash, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim, Xalq ta‘limi vazirliklarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari, shuningdek, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining idoralari hamda boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarning ushbu sohadagi ishtirokining huquqiy asoslari belgilangan [18]. Qonunda: “jumladan, umumta‘lim maktablarida, boshqa o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya bo‘yicha imtihonlar o‘tkaziladi” [19], deb qayd etilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu qonun yoshlarning sog‘lig‘ini yaxshilashda, jismoniy potensialini oshirish va takomillashtirish, ularni mehnatdagi unumdorligini va mudofaa tizimidagi ishlarga layoqatli kishilar qilib tarbiyalashga qaratilgan asosiy omildir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida ta‘kidlaganidek: “Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va

sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifalarimiz qatoriga kiradi” [20]. Bu fikrlaridan shuni anglash mumkinki, Yangi O‘zbekiston o‘z oldiga sport sohasida ham muhim amalga oshiriladigan strategik rejalarni bajarish kerakligini davlat rahbari ko‘rsatib o‘tmoqda.

So‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan amalga oshirilgan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur sohadagi o‘zgarishlar tendensiyasi oldingi yillarga nisbatan bir necha barobar ortgani kuzatildi. Xususan, qabul qilingan normativ xuquqiy hujjatlarni 7 yillik tahliliga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni [21] asosida tomonidan 2017-yil 15-fevralda imzolangan “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4956-sonli Farmonida keltirilgan tamoyillarga asosan, sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan “IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” tamoyilidagi “4.4.Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish” bandida keltirib o‘tilganidek, yoshlarni ommaviy tarzda sport bilan shug‘ullanishga jalb etish, sport infratuzilmalarini modernizatsiya qilish, qayta qurish va rekonstruksiya qilish jarayonlarini amalga oshirish sport sohasini yangi bosqichga olib chiqishdagi birinchi qadamlardan bo‘ldi.

Madaniyat va sport vazirligi 2 ta tizim: Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasiga ajratildi. 2017-yil 6-mayda “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining byudjet va bolalar sporti obyektlari hamda suzish havzalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlash bo‘yicha manzilli dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-2961-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror, Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasiga tegishli infrastruktura kapital ta‘mirlanishi yoki rekonstruksiya qilinishi zamonaviy jahon standartlari asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

2017-yil 6-iyunda “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli Prezident Qaroriga ko‘ra, sport sohasini rivojlantirishga oid maxsus “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish davlat Dasturi” qabul qilindi. Mazkur Dasturda 2017-2021-yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohalarini rivojlantirishda amalga oshiriladigan ishlar belgilandi. Prezidentning 2017-yil 10-avgustda “Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning murabbiylarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi PQ-3196-sonli Qaroriga asosan, sportchi va murabbiylarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta‘minlash masalasiga, e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3197-sonli Qarori bilan jismoniy tarbiya va sport sohasida asosiy kadr tayyorlovchi tizimni takomillashtirishga e‘tibor qaratildi. Bu esa aynan sport sohasidagi kadrlarni takomillashtirishdagi ilk natija sifatida qaralsa bo‘ladi.

2017-yil 2-oktabrda esa “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3306-sonli Prezident Qarori o‘ziga xos ravishda milliy sport turlarini rivojlantirish, o‘zbek xalqi milliy o‘yinlarining ajralmas qismi bo‘lgan kurashni aholi o‘rtasida ommalashtirishga qaratilib, 6-sentyabr “Kurash” milliy sport turi kuni, deb e‘lon qilinishi o‘zbek millatining milliy qadriyatlarini yanada rivojlantirish va milliy sport turlarini keng ommaga yoyish hamda yosh avlodni unga jalb etish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

2017-yil 16-noyabrda Prezidentning “Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tarkibida “Taekvondo va sport faoliyati” fakultetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3390-sonli Qaroriga ko‘ra, O‘zbekistonda sport faoliyatidagi kadrlar masalasi va bu borada xorij tajribasini joriy etish va uni takomillashtirish, xususan, WTF Taekvondo sport turini rivojlantirish hamda ushbu sport turiga tegishli bo‘lgan kadrlarni shakllantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

2018-yilda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘sha yilning 5-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni [22] ijrosi asosida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar hamda

infratuzilmalar yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi. Bunda sport sohasidagi boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishda xorij tajribasini qo'llash va xalqaro tizim talabidagi jarayonga olib chiqish orqali sport sohasini boshqaruvini modernizatsiya qilindi.

2018-yil 16-mart kuni Prezidentning "Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3610-sonli Qarori va 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli Prezident Farmonini ijrosini ta'minlash maqsadida istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional futbol klublari bo'yicha murabbiylar va hakamlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish qayd etildi.

2019-yildagi normativ-huquqiy hujjatlari tahliliga ko'ra, o'sha yil 13-fevraldagi Vazirlar Mahkamasining 118-sonli Qaroriga asosan "2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan Konsepsiya"si tasdiqlanib, uning asnosida davlat tomonidan sport institutini xalqaro darajaga ko'tarish hamda uni rivojlantirishning maqsadli strategiyasi ishlab chiqildi. Bu Kontsepsiya aynan sport sohasini rivojlantirishning zamonaviy strategiyasi sifatida qaralib, sport va sport sohasi bilan bog'liq barcha muammolarni yechimi uchun asosiy vazifalar kompleksi bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yil 26-avgustdagi Prezidentning "Jismoniy tarbiya va sport obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash ishlarini moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5787-sonli Farmoniga ko'ra, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish, yurtimizni va sportchilarimizni xalqaro sport maydonlarida munosib ravishda tanitish, shuningdek, sohani boshqarish organlari xodimlarining kasbiy darajasini oshirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratish kabi mexanizmlar belgilab qo'yilgan.

Natijada, 2019-yil 19-noyabrda Hukumatning 918-sonli Qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasida murabbiylik faoliyatini takomillashtirish, jumladan, trenerlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun ruxsatnoma berish mexanizmini soddalashtirish, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Milliy Olimpiya qo'mitasi tasarrufidagi sport maktablari direktorlari, direktor o'rinbosarlari, murabbiy, yo'riqchi-uslubchilarning bazaviy tarif stavkalari miqdorini yanada yaxshilash hamda murabbiylarni attestatsiyadan o'tkazish, ularga ruxsatnoma berish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Bu esa malakali kadrlarni respublikamizda faoliyat yuritishlari uchun ilk qadamlardan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

2020-yildagi sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil natijasiga ko'ra, o'sha yil 24-yanvarda Prezidentning "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmoni [23] qabul qilindi. Ushbu Farmonida respublikada so'nggi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish va rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyati cheklangan shaxslarning jismoniy somatikasini rehabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda sport turlari bo'yicha yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni tashkil etish va murabbiylar uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimiz uchun yuksak madaniyatli, har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom shaxsni kamol toptirish maqsadida jismoniy tarbiya va sport sohasida iqtidori sportchi-yoshlarni tanlab olishni (seleksiya) innovatsion standart va nostandart shakllar va usullarni joriy etish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi. Bunda yosh iqtidorli sportchilarni tanlab olish jarayonlari demokratlashtirish va haqqoniylashtirish holatini keltirib chiqarishdagi platforma bo'lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari 2020-yil 4-fevralda Prezidentning "Qishki sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4583-sonli Qaroriga ko'ra, aholi va yoshlarni qishki sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilma yaratish, qishki sport turlarini aholi va yoshlar orasida ommalashtirish va rivojlantirish borasida bir qator zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab qo'yilgan. Bunda respublikamiz aynan, iqlimi issiq davlatlar qatoridaligiga qaramasdan, yangicha yondashuv asosida zamonaviy qishki sport turlarini rivojlantirish uchun maxsus sport infratuzilmalarni barpo etish ko'zda tutilgan.

2021-yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga asosan 2021-yil 6-aprelda imzolangan Prezidentning “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, Qarorlariga binoan, sport sohasining moliyalashtirish va aholini sog‘lomlashtirishda “Eko turizm” asosida amalga oshirilishiga xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-iyundagi PQ-5160-sonli “2021-yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sport delegatsiyasining ishtirokini ta‘minlash hamda olimpiya sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida mazkur sohada olib borilayotgan tub islohotlarda asosiy mezon bo‘lib, davlatimiz tomonidan ularni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish maqsadida (Olimpiya o‘yinlari sovrinlari: 1 o‘rin 200 000 ming dollar, 2 o‘rin 100 000 ming dollar, 3 o‘rin 50 000 ming dollar [24] hamda jahon chempionatlaridagi belgilangan yutuq va sovrinlar) e‘tirof etilishi ularning turmush darajalari oshishiga olib kelmoqda. Bu esa sportchilar turmush darajasini oshirishdagi stimulyator sifatida amalga oshirildi. Barchamiz guvoh bo‘lganimizdek, Olimpiya o‘yinlari sovrindorlarini tantanali kutib olinishi va ularni Hukumat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jihatdan rag‘batlantirilishi aynan muddao hisoblanadi. Yana shuni ta‘kidlash joizki, rivojlangan davlatlarda ham bunday holat kuzatilmagan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevrlardagi PQ-136-son “Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori sport sohasini boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun Turizm va sport vazirligidan alohida ajratib, erkin boshqaruv tizimiga egalik qilish uchun amalga oshirildi. Bunda sport sohasini boshqarishda faqat jismoniy tarbiya va sportga katta e‘tibor qaratilgan xolda boshqarish tizimini yo‘lga qo‘yib, sport sohasini rivojlantirishida asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-martdagi PQ-162-sonli “Boks bo‘yicha Bahodir Jalolov sport mahorat maktabini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda 2022-yil 14-martdagi PQ-163-sonli “Gimnastika bo‘yicha Oksana Chusovitina sport mahorati maktabini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari sport turlari bo‘lmish “Boks” va “Sport gimnastikasi”lari bo‘yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash, Olimpiya o‘yinlarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan sportchilarimiz faoliyatini keng targ‘ib etish maqsadida tashkil etilmoqda. Bunda albatta, ushbu sport turlari bo‘yicha iqtidorli yosh sportchilarni yoshligidan seleksiya qilish imkoniyatini yanada takomillashtiradi hamda bu sport turlarini rivojlanishidagi muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib, o‘z navbatida, Yangi O‘zbekistonda sport sohasida yangicha rivojlanish taraqqiyotiga o‘tganligidan dalolat sifatida, yuqorida keltirib o‘tilgan mamlakatimiz Hukumati tomonidan sport sohasiga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilib, uni sportchilarimiz tomonidan qo‘lga kiritayotgan yutuqlar misol bo‘la oladi. Darhaqiqat, yoshlar turmush darajasiga sport omilining ta‘siri beqiyosdir. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: “Bugungi kunda sport va sog‘lomlashtirish jarayonlarining natijadorligi Yangi O‘zbekistonni barpo etish vazifalari bilan uzviy bog‘liq ekanini anglagan holda mas‘uliyat bilan harakat qilishimiz lozim” [25], deb bejiz ta‘kidlamagan.

Shundan kelib chiqib, birinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining barcha qatlamlarida ommalashtirish va sog‘lom turmush tarzini yuritishga jalb etish zarur. Ikkinchidan, mahalliy davlat hokimiyat organlari va fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari hamda ta‘lim muassasalarini sport sohasi jamiyatlari va tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik ishlarini amalga oshirgan xolda yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni tizimli tashkillashtirish ishlarini bajarish lozim. Uchinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasi vakillarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini yanada samarali tashkil etish zarur. To‘rtinchidan, Sport industriyasi va infratuzilmasini zamon talabi darajasida yanada rivojlantirish va takomillashtirish lozim bo‘ladi. Albatta, ushbu jarayonlarga davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar huquqiy asos bo‘ladi [26].

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1992. – Б.69-70.
2. Шакиржанова К.Т., Джалилова Л.А. Ўзбекистон Республикасида мустақиллик йилларида жисмоний тарбия ва спортнинг ривожланиши. Замонавий таълим / Современное образование. 2016. №9-сон. – Б. 63-72.
3. Miziyojev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2021. – Б.16-18.
4. Miziyojev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2021.
5. <https://www.lex.uz>.
6. <https://www.lex.uz>.
7. <https://www.lex.uz>.
8. <https://www.lex.uz>.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2002-йил 24-октябрдаги “Ўзбекистон Болалар спортини ривожлантириш жамғармасини тузиш тўғрисида”ги ПФ-3154-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002. 10-11-сон. 197-модда.
10. <https://www.lex.uz>.
11. Джалилова Л.А. Жисмоний тарбия ва спорт тарихи. – Тошкент: “Фан”. 2013. – 105 б.
12. <https://www.lex.uz>.
13. Ўзбекистон Хотин-қизлар кўмитаси томонидан Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 21 йиллигига бағишлаб ўтказилган “Хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлаш – доимий эътиборда” мавзусида республика анжумани. http://uza.uz/oz.society/khotin-izlar-uularini-taminlash - doimii - etiborda - 21.11.2013-29595? sphrase_id = 1523745 (Электрон ресурс).
14. <https://www.lex.uz>.
15. Эрназаров Э. Олимпиада – жаҳон спорт байрами. –Тошкент: “Шарқ”. 2008. – 206 б.
16. <https://www.lex.uz>.
17. <https://www.lex.uz>.
18. <https://www.lex.uz>.
19. “Халқ сўзи газетаси”. 19 февраль. 1992.
20. Miziyojev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2021.
21. <https://www.lex.uz>.
22. <https://www.lex.uz>.
23. <https://www.lex.uz>.
24. <https://www.lex.uz>.
25. Miziyojev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent:”O‘zbekiston”, 2021.
26. Akramov X.F. Sport yoshlar turmush darajasini oshirishning ijtimoiy indikatorini sifatida. Sots. fan. dok. (PhD)... dis. avtoref. – Toshkent, 2023. –50 b.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000